

XXI ASR FORTEPIANO IJROCHILIGI MUAMMOLARI

Shahzod Nuriddinov

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Fortepiano ijrochiligi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola XXI asrda fortepiano ijrochiligi sohasida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni yoritadi. Asosiy e'tibor texnik murakkabliklar, interpretatsiya masalalari, zamonaviy texnologiyalar ta'siri va auditoriya talablarining o'zgarishiga qaratilgan. Tadqiqot zamonaviy fortepiano ijrochiligining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano ijrochiligi, zamonaviy musiqiy texnika, interpretatsiya, texnologiyalar, polistilistika, minimalizm.

CHALLENGES OF PIANO PERFORMANCE IN THE 21ST CENTURY

Abstract: This article examines the pressing issues emerging in the field of piano performance in the 21st century. The focus is placed on increasing technical complexity, challenges of interpretation, the influence of digital technologies, and the shifting expectations of modern audiences. The study aims to analyze current trends in the development of contemporary piano performance practice.

Keywords: piano performance, modern musical technique, interpretation, technology, polystylism, minimalism

ПРОБЛЕМЫ ФОРТЕПИАННОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА В XXI ВЕКЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы, возникающие в сфере фортепианного исполнительства в XXI веке. Основное внимание уделяется возросшей технической сложности, вопросам интерпретации, влиянию современных технологий, а также изменяющимся требованиям аудитории. Исследование направлено на анализ тенденций развития современного фортепианного исполнительства.

Ключевые слова: фортепианное исполнительство, современная музыкальная техника, интерпретация, технологии, полистилистика, минимализм

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish, jumladan, musiqa ta'limi va ijrochilik maktabini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida musiqa san'atining barcha yo'nalishlarini, jumladan,

fortepiano ijrochiligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar orqali iqtidorli yosh musiqachilarni har tomonlama rag'batlantirish, ularning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, milliy va jahon musiqiy merosini chuqur o'rganishga zamin yaratib berilmoqda.

Fortepiano ijrochilik san'ati bugungi kunda an'anaviy maktab doirasidan chiqib, keng polistilistik qamrovga ega bo'lgan, yangi estetik va texnik imkoniyatlarni o'zlashtirgan zamonaviy san'at tarmog'iga aylanmoqda. XXI asr musiqasining stilistik rang-barangligi, globallashuv jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bu sohaga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda ijrochi nafaqat klassik akademik repertuarni mukammal egallashi, balki turli madaniy va texnologik kontekstlarda samarali ishlay oladigan ko'p qirrali musiqachi sifatida shakllanishi talab etiladi.

Mazkur maqolada zamonaviy fortepiano ijrochiligining dolzarb vazifalari, texnik va ifodaviy muammolari, shuningdek, ularning yechimiga qaratilgan yondashuvlar ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Shu orqali XXI asr ijrochisining yangi badiiy-ma'naviy qiyofasi haqida umumlashtirilgan xulosalar chiqarish maqsad qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

So'nggi yillarda fortepiano ijrochiligi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar zamonaviy musiqiy tafakkur, texnologik muhit va pedagogik yondashuvlar kesishgan nuqtalarda shakllanayotgan yangi tendensiyalarni ochib bermoqda. Jumladan, Rossiyalik tadqiqotchi E.N.Usmanova o'zining "Fortepiano ijrochiligi san'atining transformatsiyasi: zamonaviy kontekst va metodologik yondashuvlar" nomli monografiyasida raqamli texnologiyalar ta'sirida fortepiano san'atining o'zgaruvchanligini tahlil qilib, ijrochining rolini "media-interpretator" sifatida qayta baholaydi[1;45]. Muallif ijrochining zamonaviy muhitda mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishi, texnologik platformalarda ishtirok etishi zarurligini asoslaydi.

Mazkur fikr zamirida shuni ta'kidlash kerakki, texnologiyalarning musiqiy ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati ortib borayotgan bo'lsa-da, bu holat an'anaviy musiqiy madaniyatni siqib chiqarishi mumkin bo'lgan xavfni ham o'z ichiga oladi. Ijrochining asosiy vazifasi, avvalo, kompozitor matnini to'g'ri talqin qilish, uslubiy va tarixiy xususiyatlarni chuqur his qilishdan iborat bo'lib qolaveradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi D.K.Tojiboeva o'zining "Fortepiano ijrochiligida ifodaviylik masalalari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida zamonaviy o'zbek fortepiano maktabining o'ziga xosligini yoritgan, milliy lad va ritmik uslublarni akademik fortepiano repertuariga uyg'unlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan[2;60]. Uning ta'kidlashicha, bugungi yosh fortepianochilar xalq kuylariga asoslangan zamonaviy kompozitsiyalarni ijro etishda ko'proq hissiy o'ziga xoslikni namoyon qilmoqda.

Bu kuzatuvlar zamonaviy ijrochilik san'ati rivojining milliy ruhdagi yo'nalishini belgilab beradi. Shunga qaramay, ijro uslubining ortiqcha emosional bo'yoqlarga to'lib ketishi ba'zan akademik talablar va shakllangan uslubiy mezonlar bilan muvofiqlikni

yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, ijrochilikda milliylik va akademiklik o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim nazariy-ijodiy masala bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, ukrain olimasi T.V.Bondarenko o'zining "Zamonaviy fortepiano ijrochiligida polistilizm fenomeni" nomli tadqiqotida XXI asr musiqasining stilistik murakkabligi haqida to'xtalar ekan, yosh ijrochilarni turli uslublarni tezda o'zlashtirishga tayyorlash lozimligini ta'kidlaydi[3;92]. Unga ko'ra, repertuar tanlovida klassikadan tortib jaz va zamonaviy eksperimental janrlargacha bo'lgan yo'nalishlar qamrab olinishi kerak.

Bu qarash zamonaviy ta'lim jarayonining o'ziga xos yo'nalishlarini belgilasa-da, bu yerda ijrochining badiiy dunyoqarashi va estetik mezonlari shakllanmagan holatda turli uslublarni me'yordan ortiq o'zlashtirish xatarini ko'rish mumkin. Forteplano ijrochiligi birinchi navbatda mukammal maktab va chuqur individual yondashuvga tayangan holda rivojlanishi zarur.

Muhokama va natijalar

Zamonaviy fortepiano ijrochiligida texnik va musiqiy talablar ancha murakkablashgan. Thomas Adès, Unsuk Chin kabi bastakorlarning asarlarida noan'anaviy pedalizatsiya, murakkab poliritmiyalar va polifoniya, kengaytirilgan ifoda vositalari, jumladan klaviatura ustida zarba berish yoki torlarni to'g'ridan-to'g'ri chalish kabi uslublarni ko'proq uchramoqda. Bunday asarlarni talqin qilishda ijrochidan yuqori darajadagi texnika bilan bir qatorda ijodiy elastiklik talab etiladi. Shu bilan birga, polistilistika holatida, ya'ni bir asarda bir nechta uslub uyg'unlashganda, ijrochi har bir stilistik qatlamni chuqur anglab, ularni bir butun san'at asari sifatida uyg'un ifodalay olishi zarur. Endilikda an'anaviy romantik yoki klassik uslublarni interpretatsiyasi bilan cheklanib bo'lmaydi.

Raqamli texnologiyalar fortepiano ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Onlayn konsert platformalari, interaktiv notalar (masalan, "Virtual Sheet Music", "Newzik") orqali ijrochilar real vaqt rejimida moslashuvchan bo'lishga majbur. Ular nafaqat sahnadagi ijrochilar, balki zamonaviy texnologik muhitda faoliyat yurituvchi san'atkor sifatida shakllanmoqda. Bular bilan birga, auditoriyaning musiqiy iste'mol talablari ham o'zgargan: qisqa formatdagi chiqishlar, vizual tasvirlar bilan boyitilgan performanslar keng tarqalgan. Shu sabab, fortepiano ijrochiligi ko'pincha multimedia elementlari bilan boyitilmoqda va bu yangi shakllar ijrochilardan keng qamrovli mahoratni talab etadi.

XXI asr fortepiano ijrochiligi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, an'anaviy texnik ustunlik va musiqiy tafakkurni saqlab qolgan holda, yangi tendensiyalar va texnologik rivojlanishlarga moslashishni talab qiladi. Ijrochilarning o'z repertuar siyosatini yangilashi, zamonaviy kompozitorlar bilan faol hamkorlik qilishi ham zamon talabi bo'lib bormoqda.

O'zbekistonning zamonaviy fortepiano ijrochilari Sovet davridagi kuchli akademik maktab an'analarini saqlab qolgan holda, bugungi global musiqiy oqimlarga ham faol tarzda integratsiyalashmoqda. Bu ikki yo'nalishning sintezi ularning repertuar

siyosatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bir tomondan, I.S.Bax, L.Betxoven, F.Shopen, S.Raxmaninov kabi klassiklar ijrosiga sodiqlik, ikkinchi tomondan esa zamonaviy o'zbek kompozitorlari (V.I.Saparov, D.Omonullayeva, A.Ergashev kabi) va xorijiy postmodern bastakorlar asarlariga murojaat etilishi ularning san'atga keng qamrovli yondashuvini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda Bexzod Abduraimov, Lola Astanova, Elnar Nebolsin, Gulnora Alimova va Irena Gulzarova kabi yosh o'zbek pianinochilari xalqaro darajadagi tanlovlarda ishtirok etib, yuqori natijalarga erishmoqda. Bu holat ularning texnik bazasi mustahkamligi bilan bir qatorda, interpretatsion fikrlashda ham yetuklikka erishganini ko'rsatadi. Ular asarni nafaqat ijro etadi, balki uning ichki mazmunini, stilistik qatlamlarini chuqur talqin qila oladi.

Zamonaviy o'zbek fortepiano ijrochilarining repertuarida xalq kuylaridan ilhomlangan kompozitsiyalar, musiqiy teatr uchun yozilgan fortepiano variatsiyalari, hamda turli milliy kompozitorlarning fortepiano asarlari uchraydi. Shu bilan birga, ular milliy qadriyatlar va zamonaviy g'oyalarni uyg'unlashtirgan holda, o'zbek ijrochilik madaniyatining jahon miqyosida tanilishi uchun xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ko'plab o'zbek fortepiano ijrochilari o'z chiqishlarini YouTube, Instagram, va boshqa platformalarda muntazam ravishda namoyish etmoqda. Bu esa ularning ijodini nafaqat sahnada, balki virtual muhitda ham keng auditoriyaga yetkazmoqda. Ayniqsa, professional yozuvlar, intervyular va onlayn konsertlar orqali ular o'z ijodini xalqaro kontekstda tanitmoqda.

Ko'plab yetuk fortepiano ijrochilari hozirda O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, san'at maktablari va ixtisoslashtirilgan litseylar tizimida faoliyat yuritib, yangi avlod fortepiano ijrochilarini tayyorlamoqda. Ular o'z ijodiy uslubini nafaqat ijroda, balki pedagogik metodologiyada ham namoyon etmoqda.

Zamonaviy o'zbek fortepiano ijrochiligi – bu an'anaviy akademik maktabga tayanib, global jarayonlarga uyg'unlashgan, milliy musiqiy tafakkurni xalqaro maydonda ifoda etuvchi jonli va istiqbolli san'at sohasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

XXI asr fortepiano ijrochiligi oldida turgan muammolar zamonaviy musiqiy tafakkurning murakkablashuvi, texnologik taraqqiyot va auditoriya ehtiyojlarining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda ijrochi faqatgina texnik jihatdan mukammal bo'lishi emas, balki keng estetik dunyoqarashga ega, ko'p stil va janrlarda erkin harakatlana oladigan universal musiqachi bo'lishi lozim. Forteplano ijrochiligining texnik va ifodaviy mezonlari tobora murakkablashib borar ekan, bu holat ijrochidan yuqori darajadagi musiqiy tafakkur, badiiy sezgi va analitik fikrlashni talab etadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar, audio-vizual vositalar va virtual musiqiy muhitlar ijrochilik jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ijrochining kommunikativ qobiliyati, multimadaniy muhitga moslasha olish layoqati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bugungi fortepiano ijrochisi

turli xil kompozitsion maktablar, yo'nalishlar va estetik paradigmalarda erkin harakatlana olishi uchun polistilistik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Minimalizm, eksperimental musiqa, improvizatsiyaga asoslangan shakllar ham zamonaviy ijrochilik repertuarining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi tendensiyalar ijobiy imkoniyatlar bilan birga muayyan xavf va muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, raqamli qulayliklar ortidan ifodaviy chuqurlik, tiriklik va badiiylikning yo'qolish xavfi mavjud. Polistilizm esa ba'zan uslubiy noaniqlikka, shaklan eklektikaga olib kelishi mumkin. Shu bois, zamonaviy ijrochilikda uslubiy aniqlik, tarixiy kontekstni anglash va milliy maktab an'analarini asrash muhim nazariy-ijodiy mezon bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, fortepiano bo'yicha ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va turli uslubiy yo'nalishlar bilan boyitish zarur. Ijrochilarni nafaqat texnik jihatdan, balki musiqiy tafakkur, estetik idrok va tarixiy ong bilan ham qurollantirish muhimdir. Ikkinchidan, milliy ijrochilik maktabini asrash va rivojlantirish uchun xalq kuylaridan ilhomlangan asarlar, zamonaviy o'zbek kompozitorlarining fortepiano uchun yaratgan kompozitsiyalarini amaliyotga keng jalb qilish lozim. Uchinchidan, raqamli platformalarda faoliyat yurituvchi yosh ijrochilarni tanqidiy estetik fikrlashga, badiiy mustaqillik va tahliliy yondashuvga o'rgatish kerak.

Fortepiano ijrochiligi faqatgina ijro amaliyoti emas, balki badiiy fikr, madaniy xotira va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan murakkab san'at shaklidir. XXI asrda ushbu yo'nalish o'zining universal, intellektual va madaniy qamrovini yanada kengaytirib, musiqiy tafakkurning yangi ufqlarini ochmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Усманова Е. Н. Фортепианное исполнительство в эпоху цифровой культуры. – М.: Музыка, 2020. – 188 с.
2. Тожибоева Д. Қ. Фортепиано ижрочилигида ифодавийлик масалалари: номзодлик диссертацияси. – Т.: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2018. – 147 б.
3. Бондаренко Т. В. Феномен полистилизма в современном фортепианном исполнительстве. – Киев: НМАУ им. П. И. Чайковского, 2021. – 134 с.
4. Taruskin R. The Oxford History of Western Music. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – Vol. 6. – 452 p.
5. Sadie S. (ed.). The New Grove Dictionary of Music and Musicians. – London: Macmillan Publishers, 1998. – 29 vols.
6. Samson J. Music in Transition: A Study of Tonal Expansion and Atonality, 1900–1920. – New York: Dover Publications, 2013. – 296 p.
7. Brown J. Digital Technologies and the Future of Piano Performance // Contemporary Music Review. – 2020. – Vol. 39, № 5. – P. 453–470.

8. Leech-Wilkinson D. The Changing Sound of Music: Approaches to Studying Recorded Musical Performances. – London: CHARM, 2012. – 284 p.